

PRAGMATIK KONTEKSTNING LISONIY VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

Fayzullayeva Maftuna Odil qizi

(Toshkent gumanitar fanlar universiteti katta o'qituvchisi;
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi;
fmaftuna04@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20341222>

Annotatsiya

Ushbu maqolada pragmatik kontekst tushunchasi, uning asosiy unsurlari hamda nutqiy muloqotdagi o'rni tahlil qilinadi. Pragmatik kontekstning gap mazmunini shakllantirishdagi ahamiyati misollar asosida yoritilgan. Shuningdek, deyxsis, implitsit ma'no, kommunikativ semantika kabi tushunchalarning pragmatik tahlil bilan bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Maqolada G. G. Pocheptsov, J. Searle, M. L. Makarov kabi olimlarning qarashlari asosida pragmatik kontekstning lisoniy va kommunikativ jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar:

pragmatik kontekst, kommunikativ semantika, nutqiy muloqot, implitsit ma'no, deyxsis, pragmatika, lisoniy birlik, kommunikativ ma'no, denotativ mazmun, signifikativ mazmun.

Annotation

This article analyzes the concept of pragmatic context, its main components, and its role in speech communication. The importance of pragmatic context in shaping the meaning of utterances is explained through examples. The study also examines the relationship between pragmatic analysis and such concepts as deixis, implicit meaning, and communicative semantics. Based on the views of scholars such as G. G. Pocheptsov, J. Searle, and M. L. Makarov, the linguistic and communicative aspects of pragmatic context are discussed.

Key words: pragmatic context, communicative semantics, speech communication, implicit meaning, deixis, pragmatics, linguistic unit, communicative meaning, denotative meaning, significative meaning.

Pragmatik kontekst — bu gapiruvchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqot jarayonida nutqning maqsadi, vaziyati hamda kutilayotgan javob asosida ma'no shakllanishini belgilovchi kontekstdir. Boshqacha aytganda, gapning mazmuni faqat so'zlar orqali emas, balki uning qaysi sharoitda, kim tomonidan va qanday niyat bilan aytilgani orqali ham anglashiladi. Shu sababli pragmatik kontekst “gap qayerda, kim tomonidan, kimga va qanday maqsadda aytilgan?” degan savollarga javob beradi.

Pragmatik kontekstning asosiy unsurlari quyidagilardan iborat:

1. Gapiruvchi — nutqni hosil qilayotgan shaxs.
2. Tinglovchi — nutq qaratilgan shaxs.
3. Muloqot muhiti — nutq sodir bo'layotgan joy va vaziyat.
4. Vaqt — nutqning qachon aytilgani.
5. Maqsad — gapiruvchining kommunikativ niyati.
6. Sharoit — ijtimoiy va madaniy muhit.

Unsur	Tavsifi	Misol
Gapiruvchi	Gapni aytayotgan shaxs	O'qituvchi
Tinglovchi	Gap qaratilgan shaxs	O'quvchi
Gaplashuv joyi	Qayerda sodir bo'lmoqda	Sinxona

Vaqt	Qachon aytilgan	Dars payti
Maqsad	Gaplovchining niyati	Buyruq berish
Sharoit	Muhit, madaniyat, norma	Rasmiy dars vaziyati

Masalan, “Derazani ochib yubordingmi?” jumlasini grammatik jihatdan oddiy so‘roq gap hisoblanadi. Ammo pragmatik kontekstda ushbu gap tanbeh yoki e’tiroz ma’nosini anglatishi mumkin. Bu holat ayniqsa sovuq muhitda yoki norozilik ohangida aytilganda yaqqol seziladi. Yana bir misol sifatida “Sen bugun erta kelding-ku!” jumlasini ko‘rish mumkin. Agar bu gap ustoz tomonidan ijobiy ohangda aytilsa, maqtov ma’nosini bildiradi. Aksincha, do‘st tomonidan kinoya bilan aytilsa, “odatda kechikarding” degan yashirin mazmun yuzaga keladi. Demak, nutqning haqiqiy ma’nosi ohang, vaziyat va maqsad orqali aniqlanadi.

Pragmatik kontekst bilan bog‘liq muhim tushunchalardan biri deysisdir. “Bu”, “shu yerda”, “hozir” kabi ko‘rsatkich birliklar faqat konkret vaziyat orqali anglashiladi. Masalan, “Bu yerda kut” jumlasidagi “bu yerda” ifodasining ma’nosi muloqot vaziyatiga bog‘liq holda aniqlanadi.

Shuningdek, pragmatikada implitsit ma’no tushunchasi ham muhim o‘rin tutadi. Implitsit ma’no — bevosita aytilmagan, ammo tinglovchi tomonidan tushunilishi kutilgan yashirin mazmundir. Masalan, “Deraza ochiq qolibdi” jumlasini ayrim vaziyatlarda “Derazani yop” degan bilvosita talabni anglatishi mumkin.

Pragmatik kontekst til o‘rganish, tarjima, sun‘iy intellekt va madaniyatlararo muloqotda katta ahamiyatga ega. Til o‘rganishda talabalar yashirin ma’nolarni kontekst orqali tushunishni o‘rganadilar. Tarjima jarayonida esa pragmatik kontekst hisobga olinmasa, asl mazmun buzilishi mumkin. Sun‘iy intellekt tizimlari ham pragmatik ma’noni anglamasa, noto‘g‘ri javob qaytarishi ehtimoli ortadi. Bundan tashqari, turli madaniyat vakillari bir xil gapni turlicha talqin qilishlari mumkin.

Pragmatik kontekst masalasi kommunikativ semantika bilan ham uzviy bog‘liqdir. G. G. Pochepsov kommunikativ ma’no tahlilida lisoniy belgi markaziy o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, kommunikativ semantika faqat til birliklarini emas, balki ularning real nutqiy vaziyatdagi qo‘llanishini ham o‘rganishi kerak. Shu bois pragmatik tahlilda noverbal omillar — ohang, imo-ishora, muhit va ijtimoiy munosabatlar ham muhim hisoblanadi.

Pochepsov 1985-yilda semantika va pragmatika farqini shunday izohlagan edi: “Semantika – til tizimi birliklarining doimiy “mulkidir”. Pragmatik xususiyatlar ko‘plab, qator qo‘llanishlar mahsuli sifatida yuzaga keladi va mavjud bo‘ladi.”¹ Demak, lisoniy birliklarning aniq va voqeyiy muloqot sharoitida qo‘llanishi pragmatik tahlil obyektidir. So‘zlovchi va tinglovchi munosabati nutqiy muloqot sharoitida yuzaga keladi, nutqiy harakat muloqot matnini talab qiladi va shu muloqot kontekstida mazmunga ega bo‘ladi. Muloqot yuzaga kelishi uchun muhit bo‘lishi darkor. Muhit, o‘z navbatida, ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, u ijtimoiy qatlam, guruhning madaniyati bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ushbu guruhdagilar har xil anglashilmovchiliklar, ma’noviy ikkiyoqlamalik, noaniqliklarni bartaraf etish imkonini beradigan umumiy bilim zahirasi hamda muloqotning mavaffaqiyatini ta’minlovchi qoidalardan foydalanish malakasiga ega bo‘lishadi. Shunday malakaga ega bo‘lmagan shaxs muloqotda hech qanday samaraga erisha olmaydi. Nutqiy muloqotda axborot uzatish “yuki”,

¹ Почецов Г.Г. О месте прагматического элемента в лингвистическом описании // Прагматические и семантические аспекты синтаксиса.- Калинин: Изд-во 1985.-С. 12-18.

soʻzsiz, lisoniy birliklar “yelkasi”ga tushadi, ammo shaxslararo munosabat normasini, milliy-madaniy qadriyatlar tizimini egallamasdan turib, toʻlaqonli muloqotga kirishishning imkoni yoʻq. Xullas, kommunikativ faoliyat turli xildagi bilimlarga ega boʻlishni talab qiladi, bulardan, masalan, lisoniy bilim til tizimi tuzilishi bilan bogʻliq boʻlsa, qomusiy bilim esa voqelikni aks ettiradi va nihoyat, interaktiv bilim oʻzaro munosabat asosida turgan, ijtimoiy guruh uchun umumiy boʻlgan qoidalar toʻplamini bilishni taqozo etadi. “Lisoniy muloqot qobiliyati” deyilganda, xuddi shu bilimlar nazarda tutiladi. Interaktiv bilim muloqot ishtirokchilari uchun asosan bir xil darajada boʻlgani maʼqulroq, chunki faqatgina shu holatdagina yakdillikka, oʻzaro bir-birini anglashga erishib boʻladi.

Muloqotdoshlarning bir-birini tushunishi lisoniy kommunikatsiyaning asosiy shartidir. Masalan, “Choy tugabdi”, “Sovuq” jumllarini “Choy damla”, “Issiqroq kiyin” yoki “Eshikni yop” kabi mazmunlarida anglash uchun J. Searle aytgan “shared background information”, yaʼni “oʻzaro umumiy va oldindan maʼlum boʻlgan maʼlumot”ga ega boʻlish kerak. Ammo bunday holatda va “orqa fon”da turadigan maʼno oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi. Asosiy muloqot birligi boʻlgan matnning umumiy tuzilishi, mazmuniy mundariyasi lisoniy birliklar kommunikativ maʼnosini shakllantiruvchi tajriba maydonidir. Yaxlit kommunikativ lisoniy tuzilma boʻlgan matnning semantik mundariyasi denotativ va signifikativ qismlardan tarkib topadi. Bulardan birinchisi matn mazmunining voqelikda kechayotgan hodisalar bilan bogʻliq tomonlariga ishora qilsa, ikkinchisi esa matn yoki nutq ijodkorining nutqiy tafakkur faoliyati bilan bogʻliqdir.

Nutqiy muloqotning muvaffaqiyatli kechishi uchun suhbatdoshlar umumiy bilim va tajribaga ega boʻlishlari zarur. J. Searle bu holatni “shared background information”² — “umumiy oldindan maʼlum bilim” deb ataydi. Masalan, “Choy tugabdi” jumlasini ayrim vaziyatlarda “Choy damla” degan maʼnoni anglatishi mumkin. Tinglovchi ushbu yashirin mazmunni umumiy kommunikativ tajriba orqali tushunadi. Pragmatik tahlilda matnning kommunikativ mazmuni ham muhim ahamiyat kasb etadi. M. L. Makarov va I. P. Susov kabi olimlar matn mazmunini denotativ va signifikativ qismlarga ajratadilar. M. L. Makarov matn mazmuniga kommunikator markazidagi yondashuv asosida qarab, pragmatik tahlilda propozitsiya, referensiya, implikatura, presuppozitsiya va relevantlik kabi birliklarning muhim oʻrin tutishini taʼkidlaydi. Denotativ qism voqelikdagi hodisalarga ishora qilsa, signifikativ qism nutq egasining tafakkuri va kommunikativ niyati bilan bogʻliq boʻladi.

Xulosa qilib aytganda, pragmatik kontekst nutq mazmunini toʻgʻri anglashda muhim omil hisoblanadi. Soʻzlarning haqiqiy maʼnosi koʻpincha ularning lugʻaviy mazmunidan emas, balki muloqot vaziyati, ohang, ijtimoiy muhit va kommunikativ maqsaddan kelib chiqadi. Shu sababli pragmatik kontekstni oʻrganish tilshunoslikning muhim yoʻnalishlaridan biri sanaladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Макаров М.Л. Основы теории дискурса. М.: Гнозис, 2003. 119-137 с.
 2. Почепцов Г.Г. (мл.) Коммуникативная аспекты семантики.- Киев: Вища школа, 1987. 131 с.
 3. Почепцов Г.Г. О месте прагматического элемента в лингвистическом описании // Прагматические и семантические аспекты синтаксиса.- Калинин: Изд-во 1985. 12-18с.
- Searle J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1969.